

**MILLIY ARXELOGIYA MARKAZI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI**
DSc.02/02.30.12.2019. Tar.45.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH
MILLIY ARXELOGIYA MARKAZI

OMONOV ANVARBEK MURODOVICH

SELUNGUR G‘OR MAKONINING TOSH INDUSTRIYASI
(texnik-tipologik tadqiqot)

07.00.06 – Arxeologiya
(tarix fanlari)

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent-2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Omonov Anvarbek Murodovich

Selungur g‘or makonining tosh industriyasi (texnik-tipologik tadqiqot).....3

Омонов Анварбек Муродович

Каменная индустрия пещерной стоянки Сельунгур (технико-типологическое исследование).....27

Omonov Anvarbek Murodovich

Stone industry of the Selungur cave (technical-typological study)51

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....55

**MILLIY ARXELOGIYA MARKAZI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI**
DSc.02/02.30.12.2019. Tar.45.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH
MILLIY ARXELOGIYA MARKAZI

OMONOV ANVARBEK MURODOVICH

SELUNGUR G‘OR MAKONINING TOSH INDUSTRIYASI
(texnik-tipologik tadqiqot)

07.00.06 – Arxeologiya

(tarix fanlari)

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent-2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Tar1150. raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Milliy arxeologiya markazida bajarilgan

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.archaeology.uz) hamda «ZiyoNET» axborot-ta'lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sayfullayev Baxtiyor Qurbonovich
Tarix fanlari doktori

Rasmiy opponentlar:

Asqarov Axmadali Asqarovich
Tarix fanlari doktori, professor, akademik

Xushvaqov Nabi Olimovich
Tarix fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Milliy arxeologiya markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSs.02/02.30.12.2019. Tar.45.01. raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil 12.12.2023. yil 10.00 daqiqa majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 81-uy) Tel: (99871) 262-64-62; e-mail: uzarchae@academy.uz.

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi kutubxonasi va Fanlar akademiyasi Fundamental kutubxonasida tanishtirish mumkin (49 - raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Ziyolilarko'chasi, 13-uy.) Tel.: (+99871) 262-74-58; Faks: (99871) 262-34-41)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «30» noyabr kuni tarqatildi
(2023 yil «30» noyabr kuni «3» raqamli reyenti bayonnomasi)



[Handwritten signature]

F. A. Maqsudov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d.

D. X. Murodova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.n.

A. A. Anarbayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda jahon paleolitshunosligida ilk paleolit davri moddiy madaniyatini o'rganish asosida ijtimoiy va madaniy hodisalarni yoritish ilmiy jamoatchilikning eng muhim vazifalaridan biri sifatida o'rganilmoqda. Yangi tadqiqot usullarining paydo bo'lishi bilan avvalgi yillarda tadqiq qilingan paleolit davri yodgorliklari tosh to'plamlarini qayta o'rganish zarurati paydo bo'ldi. Bu borada O'rta Osiyo ilk paleolit davri yodgorliklari tosh to'plamlarini o'rganish dolzarb ahamiyatga ega.

Dunyoda ilk paleolit davri ijtimoiy hayotini tarixiy rekonstruksiya qilishda ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada paleolit davri yodgorliklari tosh buyumlarini hozirgacha o'rganilmagan ishlanish texnikasi, texnik an'analari va keng qiyosiy tahlillar yordamida uning haqqoniy madaniy-davriy xususiyatlari, genezisi hamda qo'shni sinxron populyasiyalar bilan madaniy aloqalarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda qadimgi davrlardan rivojlanib kelgan sivilizatsiya markazlarining boy o'tmishi va madaniy merosini arxeologik jihatdan tadqiq etish hamda tarixiy jarayonlarni qayta tiklash bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, so'nggi yillarda tosh, bronza va ilk temir davriga oid yangi yodgorliklar aniqlanib, olib borilgan tadqiqotlarda xalqimizning uzoq o'tmishi haqida ko'plab ma'lumotlar qo'lga kiritilmoqda. Zero, "...mintaqamizning ko'p asrlik ko'hna va boy madaniy merosi global ahamiyatga ega"¹. O'rta Osiyo ilk paleolit davri tarixini Farg'ona vodiysida joylashgan Selungur g'or makoni misolida o'rganish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 oktyabrdagi PQ-5270-son "Turizm, madaniy meros va muzeyshunoslik sohalarida malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 18 maydagi 292-son "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda, 2019 yil 21 sentyabrdagi 792-son "Arxeologik tadqiqotlarni tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Qarorlarida shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida² belgilangan ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish,

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Миромонович Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 75-сессиясидаги нутқи / Халқ сўзи, 24-сентябр, 2020 йил.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 30 октябрдаги ПҚ-5270-сон "Туризм, маданий мерос ва музейшunoslik соҳаларида малакали кадрлар тайёрлашнинг узлуksиз тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори // [электрон ресурс] <https://lex.uz/docs/5701949>; Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 18 майдаги 292-сон "Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академиясининг янгидан ташкил этилган илмий-тадқиқот муассасалари фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори // [электрон ресурс] <https://lex.uz/docs/3207162>; Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 21 сентябрдаги 792-сон "Археологик тадқиқотларни тубдан такомиллаштириш тўғрисида"ги Қарори // [электрон ресурс] <https://lex.uz/docs/4524476>; Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябрдаги ПФ-6097-сон "Илм-фanni 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги Фармони // [электрон ресурс] <https://lex.uz/docs/5073447>.

xalqimizning boy tarixi, moddiy va madaniy merosini ilmiy o'rganish, targ'ib qilish va boyitib borish kabi vazifalarni ma'lum darajada bajarishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining 1. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Selungur g'or makoni O'zbekiston bilan Qirg'iziston chegarasida, Farg'ona shahridan 100 km janubi-g'arbda, So'x daryosi vodiysida, Haydarkon qishlog'ining g'arbiy chekkasida (O'sh viloyati) joylashgan. Yodgorlikning dengiz sathidan balandligi 1890 m. Yodgorlik 1955 yilda A.P. Okladnikov tomonidan ochib o'rganilgan, 1964 yilda M.R. Qosimov g'orda qisqa tadqiqotlar olib borgan³. A.P. Okladnikov va M.R. Qosimovlar tadqiqotlari oralig'ida yodgorlik A. Poshka tomonidan ham o'rganilgan⁴. Selungurni tizimli o'rganish ishlari 1980 yilda O'.I. Isломov tomonidan boshlangan. O'.I. Isломov rahbarligida 1980-1990 yillar oralig'ida yodgorlikda kompleks (geologik, geomorfologik, paleoantologik, paleobotanik, paleoantropologik va b.) tadqiqotlar olib borilgan. Mazkur davrda amalga oshirilgan tadqiqot natijalari qator ilmiy maqolalar va risolalarda o'z aksini topgan⁵. Yodgorlikni o'rgangan tadqiqotchilar tomonidan g'orda uncha katta bulmagan 9 ta qazishmalar o'tkazilgan, natijada, yodgorlikdan 5 ta madaniy qatlam aniqlangan va bu yerdagi 3-qatlam esa yana 3 ta mikroqatlamchalarga ajratilgan. Ushbu qatlamlarning qalinligi 20-40 sm dan 0,3-1 m oralig'ida bo'lib, madaniy yotqiziqlarning chuqurligi 8,5 m ga yetgan. Qazishmalar natijasida Selungur g'or makonidan 1500 ga yaqin tosh buyumlar, shuningdek paleoflora, paleofauna va paleoantropologik materiallar qo'lga kiritilgan⁶.

Selungur g'or makoni tosh industriyasining ilmiy talqini bir qator xorijiy mutaxassislarining e'tiborini tortdi. Ulardan biri Sankt-Peterburglik olim N.K. Anisyutkin bo'ldi. Tadqiqot natijalari uning hammualliflikdagi ilmiy risola⁷ va maqolasida⁸ o'z aksini topgan. Nashrlarda N.K. Anisyutkin Selungur g'ori tosh buyumlari orasida qo'l cho'qmorlari va kliverlarning mavjudligini va ular tosh

³ Касымов М.Р. Новые исследования по палеолиту Ферганской долины в 1964 г. // ИМКУ. Вып.7. Ташкент, 1966. – С. 28-35.

⁴ Пощка А. Пещера Сел-Ун-Хур // Вопросы антропологии. Вып.2. Москва, 1960. – С. 38.

⁵ Исламов У.И., Оманжулов Т. Пещерная стоянка Сель-Унгур // ИМКУ. Вып.19. Ташкент, 1984. – С. 18-27; Исламов У.И., Крахмаль К.А. Комплексные исследования древнепалеолитической пещерной стоянки Сельунгур // Раннепалеолитические комплексы Евразии. Новосибирск, 1992. – С. 143-163; Исламов У.И., Крахмаль К.А. Палеоэкология и следы древнейшего человека в Центральной Азии. Изд-во "Фан". Ташкент, 1995. – 220 с; Исламов У.И. Древнейшая пещерная палеолитическая стоянка Сель-Унгур в Ферганской долине // Советская археология №2. Москва, 1990. – С. 115-126; Islamov U.I. Seloungour un nouveau site du Paleolithique inferieur en Asie Centrale. //L'Anthropologie 94/4: Paris, 1990. – P. 676-677.

⁶ Исламов У.И., Крахмаль К.А. Палеоэкология и следы древнейшего человека в Центральной Азии. Изд-во "Фан". Ташкент, 1995. – 220 с.

⁷ Анисюткин Н.К., Исламов У.И., Крахмаль К.А., Сайфуллаев Б., Хушваков Н.О. Новые исследования палеолита в Ахангаране (Узбекистан). Санкт-Петербург, 1995. – 40 с.

⁸ Анисюткин Н.К., Исламов У.И., Крахмаль К.А. Кливеры раннепалеолитической стоянки Сельунгур в Средней Азии // Археологические вести. №7. ИИМК РАН, Санкт-Петербург, 2000. – С. 12-18.

industriyada muhim o‘rin tutganligini ta’kidlagan. N.K. Anisyutkin yodgorlik sanasini o‘rta pleystotsen davrining birinchi bosqichiga xos (1,1-0,6 mln yillar) deb topdi. Ammo u Selungur makonining “janubiy ashel” madaniyatiga kiritilganligiga qarshi chiqdi va yodgorlikni Sharqiy Osiyo ilk paleoliti madaniyatlariga o‘xshashliklarga egaligini bayon qildi. Selungurning madaniy-davriy xususiyatlari borasida Tojikistonlik tadqiqotchi V.A. Ranov ham o‘zining ilmiy nashrlarida qator qarama-qarshi fikrlarni bildirgan⁹. Nashrlarda V.A. Ranov Selungur g‘ori 1-madaniy qatlami ustidan olingan travertin bo‘lagini sanasini 126±5 ming yillar bilan belgiladi¹⁰ va yodgorlikni o‘rta paleolitga oid, deb ta’kidladi. Shuningdek u yodgorlikning industriyasidagi qo‘l cho‘qmorlari va kliverlarni mavjudligini inkor etdi hamda Selungurni galkali madaniyatlar qatoriga kiritishni rad qildi. Chop etilgan nashrlar asosida Selungur g‘ori industriyasida qo‘l cho‘qmorlarining mavjudligini Rossiyalik tadqiqotchi L.B. Vishnyatskiy ham inkor etdi. U o‘zining 1996 yilda nashrdan chiqqan “Paleolit Sredney Azii i Kazaxstana” nomli monografiyasida Selungurning metodik jihatdan to‘g‘ri tadqiq qilinmaganligini ham ta’kidladi. Shunday bo‘lsada, yodgorlikning O‘rta Osiyo hududida eng qadimgi makonlardan biri ekanligini tan oldi¹¹.

Selungur g‘or makoni materiallariga Rossiyalik olim A.P. Derevyanko o‘zining “Tri globalniye migratsii cheloveka v Yevrazii”, deb nomlangan ko‘p jildlik asarida katta e‘tibor qaratgan¹². Yodgorlik sanasi masalasida u V.A. Ranovning fikrlariga qo‘shildi. Bundan tashqari, A.P. Derevyanko Selungurning bifaslari va kliverlarini tipologik jihatdan noto‘g‘ri talqin qilinganligini ta’kidladi hamda kolleksiyada bunday qurollarning mavjudligini shubha ostiga qo‘ydi.

2015 yilda Selungurda arxeologik tadqiqotlar Qirg‘iziston-Rossiya-Germaniya xalqaro ekspeditsiyasi tomonidan qayta jonlantirildi. Selungurning tosh industriyasi O‘rta Osiyo hududida mikok an‘analari asosida rivojlangan o‘rta paleolitning bir varianti sifatida qaraldi¹³.

Shunday qilib, Selungur g‘ori arxeologik materiallarining madaniy-davriy talqini borasida jahon adabiyotida turli fikrlilik vujudga keldi va bu yodgorlikning

⁹ Ранов В.А., Додонов А.Е. О периодизации и хронологии нижнепалеолитических стоянок Средней Азии // К истокам истории древнекаменного века Средней Азии. – Ташкент, 1994. – С. 44-53; Ранов В.А. Раскопки нижнепалеолитической стоянки Лахути 1 в 1979 году // Археологические работы в Таджикистане. Дониш, Вып. 19. Душанбе, 1986. – С. 11-36.

¹⁰ Вишняцкий Л.Б. Палеолит Средней Азии и Казахстана. Санкт-Петербург, 1996. – С. 107.

¹¹ Вишняцкий Л.Б. Палеолит Средней Азии и Казахстана. Санкт-Петербург, 1996. – С. 107; Vishnyatskiy L.B. The Paleolithic of Central Asia. Journal of World Prehistory. No. 13. 1999. – P. 69-122.

¹² Деревянко А.П. Три глобальные миграции человека в Евразии. Том 2. Первоначальное заселение человеком Северной, Центральной и Средней Азии. Изд-во ИАЭТ СО РАН. Новосибирск, 2017. – С. 399-415.

¹³ Кривошапкин А.И., Виола Б., Колобова К.А., Чаргынов Т., Бакчиев Д. Возобновление исследования пещеры Сельунгур (Кыргызстан) // Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий. Том 21. Новосибирск, 2015. – С. 94-98; Кривошапкин А.И., Виола Б., Чаргынов Т., Крайцарж М., Колобова К.А., Шнайдер С.В., Романенко М.Е. Исследования среднепалеолитических комплексов пещеры Сельунгур в полевом сезоне 2016 г. // Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий. Том 22. Новосибирск, 2016. – С. 94-99; Кривошапкин А.И., Виола Б., Чаргынов Т., Крайцарж М., Колобова К.А., Шнайдер С.В. Исследования палеолитических комплексов пещеры Сельунгур в 2017 году // Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий. Том 23. Новосибирск, 2017. – С. 141-145; Кривошапкин А.И., Колобова К.А., Шнайдер С.В., Романенко М.Е. Экспедиционные исследования многослойного пещерного памятника Сельунгур (Ферганская долина, Кыргызстан) // Вестник РФФИ. Гуманитарные и общественные науки. № 3. Москва, 2018. – С.135-144.

tosh buyumlarini zamonaviy standartlar asosida qaytadan, sinchiklab o'rganishni taqozo qildi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Milliy arxeologiya markazining "Tarix oldi davrida kishilikning tevarak-muhitga moslashuvi va tabiiy zaxiralardan foydalanish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejaloriga muvofiq.

Tadqiqotning maqsadi Selungur g'or makonidan 1980-1990 yillar oralig'ida O'.I. Islomov va K.A. Kraxmallar tomonidan qazib olingan tosh buyumlarni zamonaviy texnik-tipologik usullar yordamida tadqiq qilish va ularning ob'ektiv madaniy-davriy xususiyatlarini, shuningdek yodgorlikning Yevroosiyo paleolitida tutgan o'rnini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Zamonaviy arxeometrik usullar yordamida Selungur makoni industriyasida toshlarga birlamchi ishlov berishning xarakterli xususiyatlarini aniqlash;

eksperimental usullar yordamida Selungur makoni industriyasida toshlarni chaqmoqlashning yangi usullarini aniqlash;

zamonaviy texnik-tipologik usullar yordamida Selungur makoni ikkilamchi ishlov berilgan tosh buyumlarining ob'ektiv tip-varaqalarini ishlab chiqish va tosh qurollarga ishlov berish usullarini aniqlash;

Selungur g'or makoni tosh industriyasini qiyosiy tahlil qilish orqali uning Sharqiy, Janubi-Sharqiy va O'rta Osiyo ilk paleolitidagi analogiyalari, kelib chiqishi, madaniy-davriy xususiyatlari va o'rnini aniqlash.

Tadqiqotning ob'ektini Selungur g'or makoni materiallari asosida ibtidoiy jamiyat tarixini o'rganish tashkil qiladi.

Tadqiqotning predmetini Selungur g'or makonidan XX asrning 80-yillarida qazib olingan tosh artefaktlar – tosh o'zaklar, plastinalar, tosh qurollar, toshga ishlov berish texnikasi, xom ashyosi va texnologiyalari tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda A. de Lyumley tomonidan ishlab chiqilgan «F. Bord texnik-tipologik usulining modernizatsiyalashgan sistemasi», J. Peligrinning «Toshlarni chaqmoqlashning texnologik usullari» hamda A.P. Derevyankoning Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo paleolitini o'rganishdagi qator nazariy ishlanmalari kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Selungur g'or makoni tosh sindirish texnologiyalarida tizimlilik, zarb maydonlar tayyorlashning yo'qligi, yo'nilg'ilari chaqmoqlanish burchaklarining o'ta ochiqligi va yodgorlikda toshga ishlov berishning primitiv an'analari hukm surganligi aniqlangan;

Selungur makoni tosh buyumlari orasidan O'rta Osiyoda yangi chaqmoqlash texnologiyasi - toshlarni sandonga urib sindirish usullari mavjud bo'lganligi isbotlangan;

Selungur makoni tosh industriyasida bifaslar, kliverlar, chopper-choppinglarning birgalikda uchrashi, qisman ishlov berilganligi va qo'polligi bilan ashel madaniyati materiallaridan tubdan farq qilishi aniqlangan;

Selungur g'or makoni tosh industriyasi Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo ilk paleoliti yodgorliklariga o'xshashligi, kelib chiqishi hamda madaniy jihatdan mazkur hududlarning ilk paleolit davri madaniyatlari bilan bog'liqligi hamda ushbu madaniyatlar tarqalishining eng g'arbiy chegarasida joylashganligi va O'rta Osiyoda o'xshashi yo'qligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quydagilardan iborat:

Selungur g'or makonidan sharqiy xomo erektuslar suyak qoldiqlarining topilishi va tosh industriyasining o'xshashligi asosida yodgorlikning Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyoning ilk paleolit davri madaniyatlari doirasiga kirishi aniqlangan va bu borada zamonaviy texnik-tipologik, eksperimental va texnologik tadqiqot usullaridan keng foydalanilgan;

Selungur g'or makonining Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo ilk paleolit davri madaniyatlari tarqalishining eng g'arbiy chegarasida joylashganligi va makon qadimgi aholisining g'arbiy sinxron populyatsiyalar bilan madaniy aloqada yashaganliklari aniqlangan va bu yo'nalishda qator taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqotda tarix fanida tan olingan ilmiy yondashuvlar va usullar asosida birlamchi moddiy madaniyat manbalaridan, keng qamrovli adabiyotlardan foydalanilganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilgani hamda olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganini bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'rta Osiyo xalqlari tarixi, etnologiya, arxeologiya fanlarining metodologik yondashuvlarda, tipologiya, texnologiya, morfologiya va boshqa tosh davri madaniyatlarini o'rganuvchi fan sohalarida nazariy bilimlarni yanada boyitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekiston tarixi, arxeologiyasi va ibtidoiy jamiyat tarixlarini yoritishda foydalanish, jumladan, dissertatsiya materiallari tosh davri kolleksiyalarini tadqiq qilishda, tasniflashda, davrlashtirishda va madaniy xususiyatlarini aniqlashda tor doiradagi mutaxassislar uchun qo'llanma vazifasini o'tashi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. "Selungur g'or makoni tosh industriyasi (texnik-tipologik tadqiqot)" mavzusidagi dissertatsiya bo'yicha qo'lga kiritilgan ilmiy natijalar asosida:

Selungur g'or makoni tosh sindirish texnologiyalarida tizimlilik, zarb maydonlar tayyorlashning yo'qligi, yo'nilg'ilari chaqmoqlanish burchaklarining o'ta ochiqligi va yodgorlikda toshga ishlov berishning primitiv an'analari hukm surganligi hamda Selungur makoni tosh buyumlari orasidan O'rta Osiyoda yangi chaqmoqlash texnologiyasi - toshlarni sandonga urib sindirish usullari mavjud bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotlardan O'zbekistonning qadimgi tosh davri tarixi respublika muzeylarining ekspozitsiyalarini tashkil etish uchun muhim ma'lumot sifatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniy Meros Agentligining 2023 yil 19 iyundagi 04-06/2032-son ma'lumotnomasi). Natijalar xalqimizning boy o'tmish merosimiz tarixiga doir yangi ma'lumotlarni qo'lga kiritishga xizmat qilgan;

Selungur makoni tosh industriyasida bifaslar, kliverlar, chopper-choppinglarning birgalikda uchrashi, qisman ishlov berilganligi va qo‘polligi bilan ashel madaniyati materiallaridan tubdan farq qilishi, shuningdek, yodgorlikni Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo ilk paleoliti madaniyatlari tarqalishining eng g‘arbiy chegarasida joylashganligiga doir ma‘lumotlardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tizimidagi «O‘zbekiston tarixi» telekanalida efirga uzatilgan “Bir eksponat tarixi”, “Xalq mulki” va “Ibtido” ko‘rsatuvlari senariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2023 yil 4 iyuldagi 02-31-1041-son ma‘lumotnomasi). Natijalar teletomoshabinlarga O‘rta Osiyoning qadimgi tosh davri tarixi, hamda ushbu hududda yashagan qadimgi odamlarning moddiy va madaniy hayotiga doir yangi ma‘lumotlar bilan tanishishlariga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 4 ta ilmiy anjuman va seminarlarda, shu jumladan, 2 ta xalqaro konferentsiya va 2 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarinining asosiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta, xorijiy jurnalda 1 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning hajmi 137 bet, unga 88 bet (275 ta) javdallar, foto va chizmalardan iborat illyustrativ albom ilova qilingan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda ob‘ekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Selungur g‘or makonining paleoekologiyasi va o‘rganilish tarixi**” deb nomlangan birinchi bobi ikkita paragrafdan iborat. Birinchi paragraf “**Selungur g‘or makonining paleoekologiyasi**” deb nomlanib, unda Selungur g‘or makonining paleoekologiyasi, xususan to‘rtlamchi davrdagi tabiiy sharoit, iqlimi, o‘simlik va hayvonot dunyosi tahlil qilingan. O‘rta Osiyo hududi yer yuzining ibtidoiy tarixdagi barcha taraqqiyot bosqichlariga oid yodgorliklarni bergan kam sonli madaniy o‘choqlaridan biridir¹⁴. Mintaqaning ilk paleolit davriga oid yodgorliklari orasida eng mashhuri Selungur g‘ori bo‘lib, u O‘zbekiston bilan

¹⁴ Анарбаев А.А., Бердимуродов А.Э., Сайфуллаев Б.К. Академик Уткир Исламович Исламов – крупный исследователь первобытной истории Узбекистана // ИМКУ, Вып. 38. Ташкент, 2012. – С. 7-15; Анарбаев А.А., Сайфуллаев Б.К. Ражабов А.Ю. Недостающее звено в первобытной истории Ферганы // Археология Узбекистана, №1 (6). Самарканд, 2013. – С. 2-12.

Qirg'iziston chegarasida, So'x daryosi vodiysida joylashgan. Yodgorlikning dengiz sathidan balandligi 1890 metr. Selungur g'ori madaniy qatlamlaridan arxeologik, paleoantropologik manbalar bilan birga paleofauna va paleoflora qoldiqlarining topilishi o'rganilayotgan hududning paleoekologiyasi masalasida yanada aniqroq va ishonchli ilmiy xulosalarni qo'lga kiritishga asos bo'la oladi.

Selungurning madaniy qatlamlaridan 30 xil sut emizuvchilarning 4000 dan ziyod suyak bo'laklari, shuningdek ayrim reptiliyalar va qushlarning suyak qoldiqlari topilgan¹⁵. Paleofauna karkidon, qulon, Stenon oti, to'ng'iz, kiyik, ibtidoiy tur ho'kizi, kaltakesak, jayron, sibir echkisi, arxar, bo'ri, tulki, Deninger ayig'i, g'or shoqoli, g'or sheri, qor qoplani, silovsin, pleystotsen eshagi va ko'plab kemiruvchilarning suyak qoldiqlaridan tarkib topgan¹⁶.

Kemiruvchilar o'rta pleystotsen davri uchun xos¹⁷. Sut emizuvchi hayvonlar qoldiqlari orasida o'rta pleystotsenning birinchi yarmi uchun xos bo'lgan arxaik shakllar – Stenon oti, Deninger ayig'i, mayda mosbax bo'risi va qizil bo'ri uchraydi¹⁸. Suyaklarning saqlanish holati yaxshi emas: ular, odatda, o'ta uvalangan va skalpel bilan ishlov berilganda mayda zarralarga uvalanib ketadi. Shu sababli, yodgorlikdagi paleofauna qoldiqlaridan faqatgina 30 % ginasi aniqlangan¹⁹. Suyaklarning anchayin fragmentlashganligi va ularning tosh buyumlar topilgan madaniy yotqiziqlar orasidan olinganligidan kelib chiqib, ularning g'orda to'planishi, asosan, odam faoliyati bilan bog'liq, degan xulosalarga kelishga imkon tug'diradi. Oraliq qatlamlarda suyak qoldiqlari kam uchraydi, biroq yirik sut emizuvchilar koprolitlari (tosh qotgan suyaklari) ko'plab topilgan. 1- va 2-madaniy qatlamlarda qo'y, sibir tog' echkisi, kiyik, g'or ayig'i 3- va 4-qatlamlarda – ibtidoiy tur-ho'kizi, karkidon, qo'y, echki suyak qoldiqlari aniqlangan²⁰.

Shuningdek, Selungurdan 10 xil turdagi mayda sut emizuvchilar – kemiruvchilarning ham suyak qoldiqlari aniqlangan bo'lib, ular orasida yorqin aks

¹⁵ Исламов У.И., Крахмаль К.А. Некоторые проблемы палеоэкологической реконструкции ашельской стоянки Сельунгур // ОНУ. № 12. Ташкент, 1990. – С. 7; Батыров Б.Х., Батыров А.Р. Ископаемые млекопитающие пещеры Сельунгур // Проблемы взаимосвязи природы и общества в каменном веке Средней Азии. Ташкент, 1988. – С. 7; Величко А.А., Кременецкий К.В., Маркова А. К., Ударцев В.П. Палеоэкология ашельской стоянки Сельунгур (предварительное сообщение) // Проблемы взаимосвязи природы и общества в каменном веке в Средней Азии. Ташкент, 1988. – С. 18-19.

¹⁶ Батыров Б.Х., Батыров А.Р. Костные остатки млекопитающих пещеры Сельунгур // К истокам истории древнекаменного века Средней Азии. Ташкент, 1994. – С. 76-85; Барышников Г.Ф., Батыров Б.Х. Среднеплейстоценовые хищные млекопитающие (Carnivora, Mamalia) Средней Азии // Четвертичная фауна Северной Евразии: Санкт-Петербург, 1994. – С. 3-40.

¹⁷ Маркова А.К. Фауна ископаемых грызунов из ашельской стоянки Сельунгур // К истокам истории древнекаменного века Средней Азии. Ташкент, 1994. – С. 85-106.

¹⁸ Батыров Б.Х., Батыров А.Р. Костные остатки млекопитающих пещеры Сельунгур // К истокам истории древнекаменного века Средней Азии. Ташкент, 1994. – С. 76-85; Барышников Г.Ф., Батыров Б.Х. Среднеплейстоценовые хищные млекопитающие (Carnivora, Mamalia) Средней Азии // Четвертичная фауна Северной Евразии: Санкт-Петербург, 1994. – С. 3-40.

¹⁹ Батыров Б.Х., Батыров А.Р. Ископаемые млекопитающие пещеры Сельунгур // Проблемы взаимосвязи природы и общества в каменном веке Средней Азии. Ташкент, 1988 – С. 7; Батыров Б.Х., Батыров А.Р. Костные остатки млекопитающих пещеры Сельунгур // К истокам истории древнекаменного века Средней Азии. Ташкент, 1994. – С. 76-85; Барышников Г.Ф., Батыров Б.Х. Среднеплейстоценовые хищные млекопитающие (Carnivora, Mamalia) Средней Азии // Четвертичная фауна Северной Евразии: Санкт-Петербург, 1994. – С. 3-40.

²⁰ Батыров Б.Х., Батыров А.Р. Костные остатки млекопитающих пещеры Сельунгур // К истокам истории древнекаменного века Средней Азии. Ташкент, 1994. – С. 76-85.

etgan turlardan pomir dala sichqoni va sharq yumronqozig'i ko'pchilikni tashkil qiladi²¹. Shuningdek kulrang og'maxon, kumushrangli tog' dala sichqoni, qizil dumli tulki va sarg'ish kurkularning suyak qoldiqlari ham talaygina. Mutaxassislarning aniqlashicha, kemiruvchilarning faunasi Selungurda hayot hukm surgan vaqtlarda ba'zi joylarida, irmoqlar bo'ylarida o'rmon va butazorlarga ega tog'li dashtlar hamda janubiy adirliklarda cho'llashgan ekologik sharoitlar mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. Bu yerdagi turlarning asosiy tarkibi va nisbatlari Selungur makoni hukm surgan vaqtlarda kam o'zgarishlarga uchragan²².

Selungurning barcha 8 ta qatlamlari davomida uning atrofida dasht sharoitlari hukm surganligi haqida palinologik tadqiqotlar ham guvohlik beradi. Gul-chang spektrlarining taksonomik tarkibi stratigrafik kesmalarda sezilarli o'zgarishlarga uchramagan. Daraxtlarga oid gul-chang namunalar orasida qarag'ay va o'rmon yong'og'i, o'tlar orasida esa ro'yansimonlar, shuvoq, boshoqlilar va h.k.lar yaxshi namoyon bo'ladi²³.

Taxmin qilinishicha, o'sha davrda vodiya va tog'larning pastki qismlarida dasht landshaftlari hukmron bo'lgan, daryolar bo'ylarida esa qandag'och, qarag'aylar, tog'larda archasimonlar va undan ham yuqoriroqda keng bargli va igna bargli daraxtlar o'sgan. Umuman, Selungurda hayot hukm surgan davrlarda o'simliklar dunyosi mezofit xarakterga ega bo'lib, bu iqlimning hozirgiga nisbatan paleolit davrida anchayin nam bo'lganligidan dalolat beradi²⁴.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafi **“Selungur g'or makonining o'rganilish tarixi”** deb nomlanib, unda Selungur yodgorligining o'rganish tarixiga to'xtalib o'tilgan. Tahlilda asosiy e'tibor tadqiqotchilar tomonidan yodgorlikda olib borilgan tadqiqot natijalari va tosh buyumlarning ilmiy talqini kabi masalalarni o'rganishga qaratilgan.

Selungur g'or makoni 1955 yilda A.P. Okladnikov tomonidan ochib o'rganilgan. 1964 yilda M.R. Qosimov g'orda qisqa tadqiqotlar olib borgan²⁵. A.P. Okladnikov va M.R. Qosimovlar tadqiqotlari oraliq'ida yodgorlik A. Poshka tomonidan ham o'rganilgan²⁶. Selungurni tizimli o'rganish ishlari 1980 yilda O'.I.

²¹ Маркова А.К. Фауна ископаемых грызунов из ашельской стоянки Сельгунгур // К истокам истории древнекаменного века Средней Азии. Ташкент, 1994. – С. 85-106.

²² Маркова А.К. Фауна ископаемых грызунов из ашельской стоянки Сельгунгур // К истокам истории древнекаменного века Средней Азии. Ташкент, 1994. – С. 85-106; Исламов У.И., Халмухамедова Р.А., Крахмаль К.А. Исследования палеоэкологии антропогена Центральной Азии // Проблемы каменного века Средней и Центральной Азии. Изд-во ИАЭТ СО РАН. Новосибирск, 2002. – С. 113-118.

²³ Величко А.А., Кременецкий К.В., Маркова А. К., Ударцев В.П. Палеоэкология ашельской стоянки Сельгунгур (предварительное сообщение) // Проблемы взаимосвязи общества в каменном веке в Средней Азии. Тез. докл. Ташкент, 1988. – С. 18-19; Халмухамедова Р.А. Палинологические исследования пещерных отложений древнепалеолитической стоянки Сельгунгур // Проблемы взаимосвязи природы и общества в каменном веке в Средней Азии. Тез. докл. Ташкент, 1988. – С. 78.

²⁴ Халмухамедова Р.А. Палинологические исследования пещерных отложений древнепалеолитической стоянки Сельгунгур // Проблемы взаимосвязи природы и общества в каменном веке в Средней Азии. Тез. докл. Ташкент, 1988. – С. 78; Исламов У.И., Халмухамедова Р.А., Крахмаль К.А. Исследования палеоэкологии антропогена Центральной Азии // Проблемы каменного века Средней и Центральной Азии. Изд-во ИАЭТ СО РАН. Новосибирск, 2002. – С.113-118; Omonov.A.M. Some Considerations about Paleoeology of Central Asia and Migrations of Ancient Hominids During the Pleistocene Period // International Journal of Social Sciences, Vol. 4 No (3), 2021. – P. 341-345.

²⁵ Касымов М.Р. Новые исследования по палеолиту Ферганской долины в 1964 г. // ИМКУ. Вып.7. Ташкент, 1966. – С. 28-35.

²⁶ Пошка А. Пещера Сел-Ун-Хур // Вопросы антропологии. Вып.2. Москва, 1960. – С. 38.

Islomov tomonidan boshlangan. Natijada, yodgorlikdan 5 ta madaniy qatlam aniqlangan va bu yerdagi 3-qatlam esa yana 3 ta mikroqatlamchalarga ajratilgan. Ushbu qatlamlarning qalinligi 20-40 sm dan 0,3-1 m oralig'ida bo'lib, madaniy yotqiziqlarning chuqurligi 8,5 m ga yetgan²⁷. Yodgorlikning madaniy qatlamlaridan 30 turdagi yovvoyi hayvonlar suyaklaridan tashqari, ilk paleolit davriga oid 1500 ga yaqin tosh buyumlar topilgan. Tosh qurollar orasida chopperlar, qo'pol qirg'ichlar, o'yib-kertib ishlangan, tishsimon qirrali qurollar, kliverlar, tig'lar, protolimaslar va qo'l cho'qmorlari topilgan²⁸.

Madaniy jihatdan Selungur g'ori materiallari janubiy ashel madaniyatiga kiritilgan. Analogiya sifatida Old Osiyodagi Ubaydiya yodgorligi keltiriladi²⁹. Selungurning madaniy qatlamlaridan olingan namunalarning ion-uran uslubi bo'yicha absolyut sanasi 1,1-750 ming yilliklarni bergan. Selungur g'oridan pleystotsen davri hayvon suyaklari qoldiqlari hamda paleoantropologik qoldiqlar ham topilgan. 8-qazishmaning 2-qatlamidan bosh chanog'ining fragmenti va sochilgan odam tishlari topilgan. 3-qatlamdan alohida tishlar (10 ta) hamda yelka suyagi topilgan³⁰. Tishlar va yelka suyagi turli tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Ular 2 ta, 3 ta va extimol, 4 ta turli individlarga (35-40 yoshlardagi erkak va bittasi ayol kishiga) tegishli bo'lgan. Ushbu tishlar sharqiy xomo erektuslarga tegishliligi aniqlangan³¹.

Bundan tashqari, Selungurdan 10 yoshli bola diafizning quyi yarmi va pastki epifizi ham topilgan va u paleoantropolar va neantropolar oralig'idagi shakllarni namoyon etadi³².

Selungurning paleofaunasi 4000 dan ziyod hayvon suyaklarining bo'laklaridan iborat³³. Kemiruvchilar o'rta pleystotsen davri uchun xos³⁴. Sut emizuvchi hayvonlar

²⁷ Исламов У.И. Древнейшая пещерная палеолитическая стоянка Сель-Унгур в Ферганской долине // Советская археология №2. Москва, 1990. – С. 115-126; Islamov U.I. Seloungour un nouveau site du Paleolithique inferieur en Asie Centrale. //L'Anthropologie 94/4: Paris, 1990. – P. 676-677; Исламов У.И., Крахмаль К.А. Палеоэкология и следы древнейшего человека в Центральной Азии. Изд-во "Фан". Ташкент, 1995. – 220 с.

²⁸ Исламов У.И., Крахмаль К.А. Палеоэкология и следы древнейшего человека в Центральной Азии. Изд-во "Фан". Ташкент, 1995. – 220 с.

²⁹ Исламов У.И. Древнейшая пещерная палеолитическая стоянка Сель-Унгур в Ферганской долине // Советская археология №2. Москва, 1990. – С. 115-126; Исламов У.И., Крахмаль К.А. Комплексные исследования древнепалеолитической пещерной стоянки Сельунгур // Раннепалеолитические комплексы Евразии. Новосибирск, 1992. – С. 143-163; Исламов У.И., Крахмаль К.А. Некоторые проблемы палеоэкологической реконструкции ашельской стоянки Сельунгур // ОНУ. № 12. Ташкент, 1990. – С. 7.

³⁰ Исламов У.И., Зубов А.А., Харитонов В.М. Палеолитическая стоянка Сельунгур // Вопросы антропологии 80. Москва, 1988. – С. 38-49; Исламов У.И., Крахмаль К.А. Палеоэкология и следы древнейшего человека в Центральной Азии. Изд-во "Фан". Ташкент, 1995. – С. 83-94.

³¹ Исламов У.И., Зубов А.А., Харитонов В.М. Палеолитическая стоянка Сельунгур // Вопросы антропологии 80. Москва, 1988. – С. 38-49; Исламов У.И., Крахмаль К.А. Палеоэкология и следы древнейшего человека в Центральной Азии. Изд-во "Фан". Ташкент, 1995. – С. 83-94; Зубов А.А. Еще раз о зубах из пещеры Сельунгур // Археология, этнография и антропология Евразии. 2. (38) Новосибирск, 2009. – С. 235-243.

³² Исламов У.И., Зубов А.А., Харитонов В.М. Палеолитическая стоянка Сельунгур // Вопросы антропологии 80. Москва, 1988. – С. 38-49; Исламов У.И., Крахмаль К.А. Древнепалеолитические отложения пещеры Сельунгур // К истокам истории древнекаменного века Средней Азии. Ташкент, 1994. – С. 17.

³³ Батыров Б.Х., Батыров А.Р. Костные остатки млекопитающих пещеры Сельунгур // К истокам истории древнекаменного века Средней Азии. Ташкент, 1994. – С. 76-85; Барышников Г.Ф., Батыров Б.Х. Среднеплейстоценовые хищные млекопитающие (Carnivora, Mamalia) Средней Азии // Четвертичная фауна Северной Евразии: Санкт-Петербург, 1994. – С. 3-40.

³⁴ Маркова А.К. Фауна ископаемых грызунов из ашельской стоянки Сельунгур // К истокам истории древнекаменного века Средней Азии. Ташкент, 1994. – С. 85-106.

goldiqlari orasida oʻrta pleystotsenning birinchi yarmi uchun xos boʻlgan arxaik shakllar uchraydi³⁵. Bu yerda “Oloy pleystotsen davri teriokompleksi”ni ajratishga harakat qilingan va uning geologik yoshi 1,0-0,6 mln yil bilan belgilangan³⁶. Hozirda Selungur gʻori madaniy qatlamlarining xronologik xolati litologiya va paleofaunani oʻzida qamrab olgan maʼlumotlar toʻplamiga asoslangan. Ibtidoiy odam bu yerda 1,0-0,6 mln yillar oraligʻidagi uzoq vaqt davomida yashagan³⁷. 1,0-0,6 mln yillik sana N.K. Anisuytkin tomonidan ham qabul qilingan³⁸. V.A. Ranov³⁹ Selungurning quyi qatlamlarini 350 ming yil, yuqori qatlamlarni esa 100 ming yillar bilan sanalagan⁴⁰. Selungur kompleksida galkali qurollar koʻp sonli va turli-tumandir. Shu maʼnoda V. A. Ranovning Osiyoga, asosan, Xitoy ilk paleolitiga yaqinroq boʻlgan Selungur industriyasini galkali emas⁴¹, degan fikriga qoʻshilish qiyin⁴².

2015 yildan boshlab Selungur makonida Qirgʻiziston-Rossiya-Germaniya xalqaro ekspeditsiyasi tadqiqotlarni davom ettirmoqda. Olingan natijalar koʻra, Selungur industriyasining oʻrta paleolitga xos, bu materiallar hududning boshqa oʻrta paleolit davri komplekslaridan keskin farq qiladi va Sharqiy Yevropaning ilk mikokka oid toʻplamlariga katta oʻxshashliklarga ega⁴³. Selungur gʻor makoni haqida A.P. Derevyanko ham atroflicha toʻxtalgan⁴⁴. Selungur gʻor makonining madaniy-davriy xususiyatlari borasida mutaxassislar oʻrtasida yakdillik yoʻq. Yodgorlikda bifaslar va kliverlar kabi belgilovchi qurollarning mavjudligi mutaxassislar (A.P. Derevyanko, L.B. Vishnyatskiy, V.A. Ranov) tomonidan tan olinmadi.

II bob “Selungur gʻor makoni industriyasida toshlarni chaqmoqlash texnikasi” deb nomlanib, ikkita paragrafdan tashkil topgan. Birinchi paragraf **“Selungur gʻor makoni nukleuslari”** ga doir tadqiqot natijalari bayon qilingan.

³⁵ Барышников Г.Ф., Батыров Б.Х. Среднеплейстоценовые хищные млекопитающие (Carnivora, Mamalia) Средней Азии // Четвертичная фауна Северной Евразии: Санкт-Петербург, 1994. – С. 3-40.

³⁶ Воложенинов Н.Н., Крахмаль К.А. К алайскому плейстоценовому териокомплексу // К истокам истории древнекаменного века Средней Азии. Ташкент, 1994. – С. 106-112.

³⁷ Ўша жойда. – Б. 110.

³⁸ Анисюткин Н.К., Исламов У.И., Крахмаль К.А. Кливеры раннепалеолитической стоянки Сельунгур в Средней Азии // Археологические вести. №7. ИИМК РАН, Санкт – Петербург, 2000. – С. 15.

³⁹ Ранов В.А., Додонов А.Е. О периодизации и хронологии нижнепалеолитических стоянок Средней Азии // К истокам истории древнекаменного века Средней Азии. Ташкент, 1994. – С. 44-53.

⁴⁰ Ranov V.A., Carbonelli E., Rodriguez X.P. Kuldara: Earliest Human occupation in Central Asia in its Afro-Asian context // Current Anthropology 16|2. 1995. – P. 337-345.

⁴¹ Ранов В.А. Каменный век Южного Таджикистана и Памира: Автореф. дисс. докт. ист. наук. Новосибирск, 1988. – 52 с.

⁴² Анисюткин Н.К., Исламов У.И., Крахмаль К.А. Кливеры раннепалеолитической стоянки Сельунгур в Средней Азии // Археологические вести. №7. ИИМК РАН, Санкт – Петербург, 2000. – С. 18.

⁴³ Кривошапкин А.И., Виола Б., Колобова К.А., Чаргынов Т., Бакчиев Д. Возобновление исследования пещеры Сельунгур (Кыргызстан) // Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий. Том 21. Новосибирск, 2015. – С. 94-98; Кривошапкин А.И., Виола Б., Чаргынов Т., Крайцарж М., Колобова К.А., Шнайдер С.В., Романенко М.Е. Исследования среднепалеолитических комплексов пещеры Сельунгур в полевом сезоне 2016 г. // Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий. Том 22. Новосибирск, 2016. – С. 94-99; Кривошапкин А.И., Виола Б., Чаргынов Т., Крайцарж М., Колобова К.А., Шнайдер С.В. Исследования палеолитических комплексов пещеры Сельунгур в 2017 году // Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий. Том 23. Новосибирск, 2017. – С. 141-145.

⁴⁴ Деревянко А.П. Три глобальные миграции человека в Евразии. Том 2. Первоначальное заселение человеком Северной, Центральной и Средней Азии. Изд-во ИАЭТ СО РАН. Новосибирск, 2017. – С. 399-415.

Selungur g'or makonida qazishmalar metodologik jihatdan to'g'ri olib borilmagan. G'orning plani, topilmalarning qayd qilinganlik hujjatlari, shuningdek artefaktlarning aksariyati yuzasidagi yozuvlar, ya'ni ularning manzili ko'rsatilmaganligi uchun tadqiqotimizda yodgorlikning materiallari umumlashtirilgan holatda o'rganildi. Selungur g'or makoni nukleuslari 36 ta bo'lib, ular orasida bir zarb maydonli, bir yuzadan chaqmoqlangan o'zaklar (16 ta) katta o'rin tutadi. Ulardan og'ir ushatg'ich yordamida qalin va kalta proporsiyali uchirindilar chaqmoqlab olingan.

To'planning bir zarb maydonga ega nukleuslari 4 ta tiposti turlarga ajraladi. Ular orasida bir va nisbatan tor zarb maydondan (7 ta), bir keng zarb maydondan (5 ta), bir tekislangan maydondan (2 ta) hamda galka qobiqli yuzadan (2 ta) chaqmoqlanganlari uchraydi. Nukleuslar orasida perpendikulyar (3 ta), unifasial qarama-qarshi zarb maydonli (4 ta), ikki qarama-qarshi zarb maydonli bifasial ishlov berilgan (1 ta), ortogonal (4 ta) hamda ko'p zarb maydonli (8 ta) o'zaklar mavjud.

Selungur g'or makoni nukleuslari asosan og'ir tosh ushatg'ichlar yordamida faqat uchirindilar chaqmoqlab olishga mo'ljallanganligi bilan ajralib turadi. Nukleuslarni chaqmoqlashda aksariyat xollarda zarb maydon tayyorlanmagan va ularning ish yuzasi hamda zarb maydonlari o'rtasidagi burchak juda ochiq. Bu holat nukleuslarning ish yuzasini to'liq chaqmoqlab olish imkoniyatini pasaytirib yuborgan. Natijada yo'nilg'ilar nukleus ish yuzalarining boshlang'ich qismlarida sinib qolavergan va bu perpendikulyar, ortogonal yoki ko'p zarb maydonli o'zaklarning paydo bo'lishiga olib kelgan. Selungurda "qirradan chaqmoqlash" texnikasi ustunlik qiladi. Nukleuslarda asosan bir yo'nilg'i negativi keyingi yo'nishlar uchun zarb maydon vazifasini o'tagan. Ko'p hollarda zarb maydon vazifasini xom ashyoning galkali yuzasi o'tagan. Yodgorlikda kam sonli bo'lsada sandonda sindirish texnikasi ham hukm surgan va bu asosan, yirik galkalarni chaqmoqlashda qo'llanilgan.

Shunday qilib, Selungur makonida toshlarni chaqmoqlash texnikasi primitiv, tayyorgarliksiz va pala-partish amalga oshirilgan. Chaqmoqlash burchaklarini nazorat qilish ishlari umuman bo'lmagan. Buni xom ashyo sifatining pastligi bilan emas, balki madaniy an'analar bilan bog'lash o'rinli bo'ladi. Negaki, yodgorlikda mayda qumli yashma, kuchli kremniylashgan oxaktosh, yashil kremniy va h.k. sifatli xom ashyo turlari mavjud bo'lgan.

II bobning ikkinchi paragrafi "**Selungur g'or makoni uchirindilari**" ga bag'ishlangan. Yodgorlikning uchirindilari-754 dona bo'lib, tosh industriyaning asosini tashkil qiladi (67 %). Ular hajmiga ko'ra: yirik (<5 sm), o'rta (5-3 sm) va kichik (3>1) turlarga ajraladi. Uchirindilardan 337 tasi (45 %) zarb maydonchalarini saqlab qolgan. Yodgorlikning uchirindilaridan 231 tasi ikkilamchi ishlov berilib, turli qurollarga aylantirilgan. Selungur makoni uchirindilari dorsalida galkali qobig'ini saqlanib qolishiga ko'ra 4 ta tipga ajratildi: I – tip – dorsali 100 % galka qobiqli, II – tip – dorsalining 50 % dan ortig'i galka qobiqli, III – tip – dorsalining 50 % dan kamroq qismi galka qobiqli va IV – tip – dorsali mutlaqo galka qobiqsiz uchirindilar.

Kollektsiyaning yirik hajmli uchirindilari-102 dona, shundan 62 ta uchirindining zarb maydonchalari saqlanib qolgan. To‘planning yirik hajmli uchirindilari zarb maydonchalarining chaqmoqlanish burchaklari $75-140^{\circ}$ oralig‘ida. Ushbu uchirindilarning o‘rtacha chaqmoqlanish burchak kattaligi 121° ga teng. Yirik hajmli uchirindilardan 16 tasiga ikkilamchi ishlov berilib, qurollarga aylantirilgan. Dorsallar xarakteriga ko‘ra yirik hajmli uchirindilar uzunasiga (43 ta), preperdikulyar (44 ta), uzunasiga qarama-qarshi (11 ta) va to‘liq galka qobiqli (4 ta) turlarga ajraladi. Zarb maydonchalarining xarakteriga ko‘ra tekis (55 ta), fasetkali (3 ta) va galka qobiqli (4 ta) tipdagi uchirindilar uchraydi. Zarb maydonchasi singan yirik hajmli uchirindilar 40 tani tashkil qiladi. Galkali qobiqqa nisbatan: 1-tip – 7 ta, 2-tip – 8 ta va 3-tip – 11 ta.

O‘rta hajmli uchirindilar - 420 ta. Ulardan 220 tasi zarb maydonchalarini saqlab qolgan va 107 tasiga ikkilamchi ishlov berilib, turli qurollarga aylantirilgan. Zarb maydonchalarining xarakteriga ko‘ra o‘rta hajmli uchirindilar – tekis (144 ta), fasetkalashtirilgan (30 ta), ikki qirrali (18 ta), chiziqsimon (10 ta) va galka qobiqli (18 ta) turlarga bo‘linadi. Zarb maydonchasi singan o‘rta hajmli uchirindilar 200 tani tashkil qiladi. Ulardan 108 ta tosh qurol ishlangan va qolgan 92 tasiga ishlov berilmagan. Dorsallar xarakteriga ko‘ra o‘rta hajmli uchirindilar quyidagi tiplarga ajraladi: uzunasiga-193 ta, perpendikulyar-136 ta, uzunasiga qarama-qarshi-66 ta, multidirektsional-5 ta va to‘liq galka qobiqli-20 ta. I tip – 20 ta, II tip – 12 ta, III tip – 40 ta va qolganlari IV tip – 348 ta. Chaqmoqlanish burchaklari o‘rtacha $89-143^{\circ}$ oralig‘ida (chiziqsimon zarb maydonchali uchirindilardan tashqari). Ularning o‘rtacha chaqmoqlanish burchagi 118° atrofida.

Kichik hajmli uchirindilar-232 ta. Kolleksiya-dagi kichik hajmli uchirindilardan 56 tasi zarb maydonchalarini saqlab qolgan va xarakteriga ko‘ra ular quyidagi tiplarga ajraladi: tekis-35 ta, fasetkali-15 ta va ikki qirrali-6 ta. Chaqmoqlanish burchaklari $99-137^{\circ}$ oralig‘ida va o‘rtacha chaqmoqlanish burchagi 118° ni tashkil qiladi. Dorsallar xarakteriga ko‘ra ushbu uchirindilar: uzunasiga (176 ta), perpendikulyar (32 ta), uzunasiga qarama-qarshi (22 ta) va to‘liq galka qobiqli (2 ta) turlarga ajraladi. Galkali qobiqqa nisbatan ushbu uchirindilar orasida - I tip-2 ta, II tip-3 ta va III tip-1 tani tashkil qiladi. Qolgan kichik hajmli uchirindilar IV tipga mansub. Kichik hajmli uchirindilardan 9 tasi ikkilamchi ishlov berilib turli qurollarga aylantirilgan. Kichik hajmli uchirindilardan 176 tasining zarb maydonchalari singan.

Qadimgi selungurliklar galkalarni chaqmoqlashda ularning tekis yuzalaridan keng foydalanganlar va bunda chaqmoqlanish burchaklari deyarli hisobga olinmagan. Selungur g‘or makoni industriyasida kam sonli texnik yo‘nilg‘ilar ham mavjud (39 ta). Ular orasida sire aksidentlari (20 ta), nukleus bortidan chaqmoqlab olingan yo‘nilg‘ilar (14 ta), nukleus zarb maydonini yangilashdan hosil bo‘lgan (2 ta), ikki qarama-qarshi zarb maydonli o‘zakning ish yuzasini yangilashdan (1 ta) hamda nukleuslarni distal qismini yangilashdan (2 ta) paydo bo‘lgan texnik uchirindilar uchraydi.

Selungur makonida yirik galkalarni sandonga urib sindirish amaliyoti ham mavjud bo‘lgan va bu yirik bo‘laklarda kuzatiladi. Ushbu chaqmoqlash texnikasi

negativlarning noaniqligi bilan xarakterlanadi va bu eksperimental tadqiqotlar bilan o‘z isbotini topadi. Shunday qilib, Selungur makonida toshlarni chaqmoqlash texnikasi primitiv, tayyorgarliksiz va pala-partish amalga oshirilgan. Chaqmoqlash burchaklarini nazorat qilish ishlari deyarli bo‘lmagan.

Dissertatsiyaning **III bobi “Selungur g‘or makoni tosh qurollari”** deb nomlanib, ikki paragrafdan iborat. Birinchi paragraf **“Selungur g‘or makoni yirik hajmli tosh qurollari”** ga bag‘ishlangan. Selungur g‘or makoni tosh qurollari jami 298 tani tashkil etadi. Yirik hajmli tosh qurollar (makro outillage) 41 ta bo‘lib (13,8 %), ushbu ro‘yxatga bifaslar (12 ta), kliverlar (19 ta), piklar (2 ta), chopperlar (5 ta) va choppinglar (3 ta) kiritildi. Selungur g‘ori tosh industriyasida bifaslar muhim o‘rin egallaydi (12 ta). Ammo ularning shakllari atipik bodomsimon, yuraksimon va uchburchak shakllarga ega. Ishlanishi qo‘pol va hech qachon ularning o‘rta qismlari yo‘nish yoki shox bolg‘a yordamida olib tashlanmagan. Bu holat Selungurning bifaslarini g‘arbiy paleolitning sinxron industriyalaridan farq qilishini ko‘rsatadi. Selungur g‘ori bifasial ishlov berilgan qurollari kam sonliligi va ishlanish texnikasiga ko‘ra Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyoning texnokomplekslariga o‘xshashligi ko‘zga tashlanadi.

Umuman, Selungur makonida bifaslar ishlab chiqarish nisbatan kam sonli bo‘lsada amalga oshirilgan va bu qadimgi aholining madaniy an‘analari bilan bog‘liq ehtimol, negaki g‘arbdagidek Selungur bifaslarining aksariyati pichoq sifatida ishlatilganligiga ishonish qiyin. Xuddi Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyoning ilk paleolit komplekslarida bo‘lgani singari yodgorlikning bifaslari chopquvchi qurollar vazifasini o‘tagan bo‘lishi mumkin.

Yirik hajmli tosh qurollar orasida 19 ta kliver aniqlangan. Selungur g‘or makoni kliverlari nisbatan kam sonli va atipik shakldaligi bilan ajralib turadi. Ularning aksariyati ma‘lum shaklga ega emas. To‘plamda asosan “O” Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyoning ilk paleolitiga xos kliverlar uchraydi. Selungurning yirik hajmli tosh qurollari orasida ikkita piksimon qurollar mavjud. Тўпламда Cchopperlar-5 ta-choppinglar-3 ta. Selungur g‘or makoni kolleksiyasida bir va ikki taraflama ishlov berilgan chopperlar tipidagi chopquvchi qurollar ham aniqlandi. Ularning ayrimlari nukleuslardan shakllantirilgan.

Shunday qilib, Selungur makonining ushbu kolleksiyasida kam sonli bo‘lsada yirik hajmli tosh qurollar mavjud bo‘lib, ular orasida bifaslar, kliverlar, piklar hamda chopper va choppinglar birgalikda uchraydi.

Dissertatsiya III bobining ikkinchi paragrafi **“Selungur g‘or makoni kichik hajmli tosh qurollari”** deb nomlanandi. Mazkur paragrafda Selungur makoni kichik hajmli tosh qurollarining texnik-tipologik xususiyatlariga to‘xtalib o‘tilgan. Selungur makonining kichik hajmli (petit outillage) tosh qurollari jami 257 ta bo‘lib, bular 12 ta tip va 31 ta tiposti guruhlariga ajratildi (86,2 %). Ushbu toifa qurollar orasida asosiy o‘rinni turli modifikatsiyadagi qirg‘ichlar egallaydi (40,7 %). Keyingi pog‘onani tishsimon qurollar egalladi (10,8 %). Agar ankoshlar (6,4 %) bilan qo‘shib hisoblasak, tishsimon elementlar kolleksiyada 17,2 % ni tashkil qiladi. Navbatdagi pog‘onalarni retushlangan uchirindilar (11,5 %), kombinatsiyalashgan

qurollar (5,4 %), turli xil tig‘lar (4,7 %), kam sonli bigizlar (2 %), kesgichlar (2 %), pichoqlar (1,7 %), planolar (1,7 %) va qirg‘ichchalar (0,3 %) band qiladi.

Retushlarining xarakteriga ko‘ra aksariyat xollarda ushbu qurollarning ish qirralari avvalombor, kichik yo‘nishlar yordamida va so‘ngra tik, yupqa, zinasimon, tishsimon va ordinar retushlar yordamida ishlov berilgan. Kolleksiyaning tosh qurollari asosan dorsal tarafdin retushlangan. Biroq to‘plamda yo‘nilg‘ilarning ventral tarafdin retushlash ham sezilarli o‘rin tutadi. Selungur makoni tosh industriyasidagi qurollarning asosiy xususiyatlaridan biri ularning qalin tanovorldan shakllantirilganligidir. Bu xolat tanovorldarning qirralarini avval yo‘nishlar yordamida yupqalashtirilishiga va so‘ngra retushlanishiga olib kelgan.

To‘plamda yirik hajmli tosh qurollarning deyarli barcha turlari uchraydi. Ular orasidagi asosiy o‘rin tutadigan kliverlar va bifaslar atipikligi bilan ajralib turadi. Bifaslar aksariyat hollarda qisman ishlangan yoki oxirigacha ishlov berilmagan va yuzalarida galka qobiqlarini saqlab qolgan. Yirik hajmli tosh qurollar ko‘pincha sandonda sindirib olingan va kam hollarda yirik birlamchi uchirindilardan ishlangan.

Dissertatsiyaning IV bobi “Selungur g‘or makonining madaniy-davriy xususiyatlari” deb nomlanib, ushbu bob turtta paragrafdan iborat. Birinchi paragraf **“Selungur g‘or makonining analogiyasi masalalari”** ga bag‘ishlangan. Madaniy jihatdan Selungur g‘ori materiallari janubiy ashel madaniyatiga kiritilgan edi⁴⁵. Analogiya sifatida Old Osiyodagi Ubaydiya yodgorligi keltiriladi⁴⁶. Ammo hozirda Yaqin Sharqdagi Ubaydiya (1,4 mln y.) va Gesher-Benot-Yakov (0,8 mln y.) yodgorliklari qadimgi g‘arbiy ashel madaniyatiga oid yagona yodgorliklar sifatida talqin qilinmoqda. Yevropa hududida esa ashelga oid industriyalarning sanasi 650 ming yildan oshmaydi. Selungur makonidan topilgan makroqurollar (kliverlar, bifaslar, piklar, chopperlar) atipik bo‘lib, texnik-tipologik ko‘rsatgichlariga ko‘ra Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyoning paleolit davri materiallariga o‘xshashdir. Xususan, bunday tosh qurollar Pinlyan, Yunsyen, Beyse (Xitoy), Rok-Ting (Vyetnam) kabi yodgorliklaridan topilgan⁴⁷. Bunga toshlarni chaqmoqlash texnikasi, qurollar tarkibi, zarb maydonchalarning hech qachon maxsus tayyorlanmaganligi, nukleuslarning sistemasizligi, yo‘nilg‘ilarning qalin va dag‘alligi, sandonda sindirish amaliyotining mavjudligi va hakozi o‘xshashliklarni qo‘shib hisoblaganda Selungur texnokompleksining ildizlarini Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo ilk paleoliti madaniyati doirasidan axtarish maqsadga muvofiq.

Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyoda kam sonli bifasli industriyalar 1 mln-120 ming yillar atrofida muomalada bo‘ladi va ularning paydo bo‘lishi Afrika asheli bilan bog‘liq emas⁴⁸.

⁴⁵ Исламов У.И., Крахмаль К.А. Комплексные исследования древнепалеолитической пещерной стоянки Сельунгур // Раннепалеолитические комплексы Евразии. Новосибирск, 1992. – С. 143-163.

⁴⁶ Исламов У.И., Крахмаль К.А. Палеоэкология и следы древнейшего человека в Центральной Азии. Изд-во “Фан”. Ташкент, 1995. – 220 с; Исламов У.И., Оманжулов Т. Пещерная стоянка Сель-Унгур // ИМКУ. Вып.19. Ташкент, 1984. – С. 18-27.

⁴⁷ Gao X., Huang W., Hao X., Chen B. Fission track dating of ancient man site Baise, China, and its significance in arase research, paleomagnetism and stratigraphy // Radiation measurements, vol. 28 (1/6): 1997. – P. 565 – 570; SuN.Kh., Doi N.G. System of the Paleolithic Locations in the Upper Ba River. Vietnam social sciences, vol. 168, No. 4: 2015. – P. 47–63.

⁴⁸ Деревянко А.П. Бифасиальная индустрия в Восточной и Юго-Восточной Азии. Изд-во ИАЭТ СО РАН. Новосибирск, 2014. – 372 с.

Umuman olganda, O'rta Osiyoda Selungur makonining o'xshashi yo'q. Yodgorlik industriyasida toshlarni chaqmoqlashda sistemalarning, tayyorlangan zarb maydonlarning yo'qligi, sandonda sindirish usulining mavjudligi, kliverlar va qo'l cho'qmorlarining atipikligi va qisman ishlov berilganligi, enli yo'nilg'ilar olish amaliyotining ustunligi, qirg'ichlar va tishsimon qurollarning yetakchi pozitsiyadaligi, makonda sharqiy xomo erektuslar yashaganligi va h.k.lar uni Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo paleoliti yodgorliklari bilan yaqinlashtiradi.

Dissertatsiya IV bobining ikkinchi paragrafi "**Selungur g'or makonining madaniy xosligi masalalari**" deb nomlanib, bunda tosh industriyaning tahlilidan kelib chiqib, yodgorlikning madaniy xosligi masalasiga batafsil to'xtalib o'tilgan.

Selungurda toshlarga birlamchi ishlov berishda Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo ilk paleolitida bo'lgani kabi zarb maydonlar tayyorlanmagan va ko'p hollarda zarb maydon vazifasini galkalarning tabiiy yuzalari o'tagan. Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo paleolitining yana bir xususiyatlaridan biri "qirradan chaqmoqlash" texnikasi bo'lgan. Selungurdagi tekis zarb maydonchali yo'nilg'ilar avvalgi negativlarning tekis yuzasidan chaqmoqlab olingan. Bu haqda yodgorlikdagi uchirindilarni zarb maydonchalarning chaqmoqlanish burchaklarining o'ta ochiqligi guvohlik beradi. Bu an'ana Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyoning butun ilk paleoliti davrida o'zgarishsiz davom etadi. Yodgorlikda toshlarni chaqmoqlash texnikasi o'ta primitiv va pala-partish xarakterga ega. Morfologik jihatdan ajratilgan perpendikulyar, ortogonal, ko'p zarb maydonli nukleuslar esa chaqmoqlashning sistemalari emas. Bunday chaqmoqlash texnologiyalari oqibatda massiv, qo'pol va kalta proporsiyali uchirindilarning chaqmoqlab olinishiga olib kelgan.

Selungur makoniga xom ashyoning yirik galkalari tashib keltirilgan va ulardan sindirib olingan tanovorlar nukleuslar, kliverlar va bifaslarni yasashda foydalanilgan. Biroq selungurliklar yirik galkalarni havoda ushlagan holatda emas, balki sandonda sindirib olish amaliyotini qo'llaganlar. Shuning uchun ham Selungurda yirik galka bo'laklaridan ishlangan buyumlarning ventral taraflari yorqin emas. Bunday tosh sindirish usullari Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo paleolitining ko'pgina yodgorliklarida uchrasada, yaqin analogiyalar Beyse, Rok-Ting va Dintsyun⁴⁹ makonlari industriyalarida kuzatiladi.

Shunday qilib, Selungur makonida (quyi qatlamlarida) toshlarga birlamchi ishlov berish o'ta primitivligi bilan ajralib turadi va bu industriyaning umumiy ko'rinishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Bu holat Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyoning ilk paleolit davri komplekslariga xos xususiyat hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni paleoantropologik materiallar ham tasdiqlaydi. Selungurdan topilgan gominidlarining tishlari, A.A. Zubovning ta'kidlashicha, sharqiy xomo erektuslarga tegishli. Selungur kompleksida galkali qurollar ko'p sonli va turli-tumandir. Shu ma'noda V. Ranovning Osiyoga, asosan, Xitoy ilk paleolitiga

⁴⁹ Hou Yamei, Potts R., Yuan Baoyin, Guo Zhengtang, Deino A., Wang Wei, Clark J., Xie Guangmao, Huang Weiwen. Mid-Pleistocene Acheulean-like Stone Technology of the Bose Basin, South China. *Science*, vol. 287, N 5458: 2000. – P. 1622-1626.

yaqinroq bo'lgan Selungur industriyasini galkali emas⁵⁰, degan fikriga qo'shilish qiyin⁵¹.

Selungur makoni tosh buyumlarning texnik-tipologik xarakteristikalarining ko'rsatishicha, yodgorlik Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyoning ilk paleolit davri madaniyatlari doirasiga kiradi.

Dissertatsiya IV bobining uchinchi paragrafi **“Selungur g'or makonining xronologiyasi masalalari”** deb nomlanadi. Ushbu paragrafda Selungur g'or makonining mutloq va nisbiy sanasi masalasiga to'xtalib o'tilgan. Ilk paleolitga oid Selungur makonining yoshi masalasi ham munozoralidir. Selungurning madaniy qatlamlaridan olingan namunalarning ion-uran uslubi bo'yicha absolyut sanasi 1,1-750 ming yilliklarni bergan. Shu jihatdan Selungur Markaziy Osiyo hududidagi eng qadimgi yodgorlik, deb talqin qilingan. Shuningdek yodgorlik kollagen tahlillarga ko'ra ilk pleystotsenning ikkinchi yarmi bilan, ya'ni 1,1 mln va 1,5 mln. yillargacha sanalangan⁵². Selungur qatlamlarining geologik qadimiyligi masalasi hozircha noaniqligicha qolmoqda. O'I. Islomov va uning xodimlarining nashrlarida yodgorlik madaniy qatlamlarining quyi pleystotsenga oidligi tasdiq ohangida ta'kidlangan, ammo buning uchun yetarlicha dalillar keltirilmagan. Mavjud palinologik va paleofaunistik materiallarning ko'rsatishicha, topilmalar o'rta pleystotsen davriga oid⁵³, paleolit davri tosh buyumlarini texnik-tipologik tahlillari esa, qatlamlarning geologik va absolyut sanasi bo'yicha kam ma'lumotlarni beradi⁵⁴. Shunday bo'lsada, Selungurning O'rta Osiyoda eng qadimgi yodgorliklardan biri ekanligi shubha uyg'otmaydi va bu haqda paleontologik, paleoantropologik va arxeologik materiallar, shuningdek yodgorlikning birinchi qatlami ustidan olingan travertin asosidagi uran-ion sanasi (126±5 ming yillar (LU-936)) birgalikda guvohlik beradi⁵⁵.

Selungurning paleofauna materiallari orasida karkidon, qulon, Stenon oti, to'ng'iz, bug'u, ibtidoiy tur-ho'kizi, jayron, sibir tog echkisi, arxar, bo'ri, tulki, Deninger ayig'i, g'or shoqoli, g'or sheri, qor qoplani, silovsin va ko'plab kemiruvchilarning suyak qoldiqlari uchraydi⁵⁶. Kemiruvchilar o'rta pleystotsen

⁵⁰ Ранов В.А. Каменный век Южного Таджикистана и Памира: Автореф. дисс. докт. ист. наук. Новосибирск, 1988. – 52 с.

⁵¹ Анисюткин Н.К., Исламов У.И., Крахмаль К.А. Кливеры раннепалеолитической стоянки Сельунгур в Средней Азии // Археологические вести. №7. ИИМК РАН, Санкт-Петербург, 2000. – С. 18.

⁵² Величко А.А., Арсланов А.А., Герасимов С.А., Исламов У.И. Стратиграфия и палеоэкология раннепалеолитической стоянки Сель-Унгур // Хроностратиграфия палеолита Северной, Центральной, Восточной Азии и Америки: Новосибирск, 1990. – С. 76-79; Исламов У.И., Крахмаль К.А. Палеоэкология и следы древнего человека в Центральной Азии. Изд-во “Фан”. Ташкент, 1995. – С. 163.

⁵³ Величко А.А., Арсланов А.А., Герасимов С.А., Исламов У.И. Стратиграфия и палеоэкология раннепалеолитической стоянки Сель-Унгур // Хроностратиграфия палеолита Северной, Центральной, Восточной Азии и Америки: Новосибирск, 1990. – С. 76-79.

⁵⁴ Ранов В.А., Додонов А.Е. О периодизации и хронологии нижнепалеолитических стоянок Средней Азии // К истокам истории древнекаменного века Средней Азии. – Ташкент, 1994. – С. 44-53.

⁵⁵ Вишняцкий Л.Б. Палеолит Средней Азии и Казахстана. Санкт-Петербург, 1996. – С. 107.

⁵⁶ Батыров Б.Х., Батыров А.Р. Костные остатки млекопитающих пещеры Сельунгур // К истокам истории древнекаменного века Средней Азии. Ташкент, 1994. – С. 76-85; Барышников Г.Ф., Батыров Б.Х. Среднеплейстоценовые хищные млекопитающие (Carnivora, Mammalia) Средней Азии // Четвертичная фауна Северной Евразии: Санкт-Петербург, 1994. – С.3-40.

uchun xarakterli⁵⁷. Sut emizuvchilar orasida Stenon oti, Deninger ayig'i, kichik mosbax bo'risi va qizil bo'ri kabi arxaik shakllar ko'zga tashlanadi va ular o'rta pleystotsenning birinchi yarmiga ishora qiladi⁵⁸. Faunistik qoldiqlar asosida "Oloy pleystotsen teriokompleksi"ni ajratishga harakat qilingan va uning geologik sanasi 600000-1100000 ming yillarga teng⁵⁹.

V.A. Ranovning fikri boshqacharoq va u yodgorlikni anchayin yoshartirib yuborgan⁶⁰. Ammo bu sana shubha uyg'otadi, negaki travertindan olingan uran-ion sanasi 1-madaniy qatlamning ustki qismidan olingan (126000±5000 yil (LU-936)) va uning madaniy qatlamga aloqasi yo'q. Shunday qilib, yuqorigi 1-qatlam mikulin muzlik oralig'i davridan qadimiyroq⁶¹. Geoxronologik, paleofauna va palinologik qoldiqlar ma'lumotlariga ko'ra Selungurni aftidan, o'rta pleystotsenga oid deyish mumkin⁶². O'zbekistonga qadimgi populyatsiyalarning yangi migratsion to'lqini aftidan, bundan 350-300 ming yillar muqaddam kirib kelgan⁶³.

Paleozoologlarning bergan sanasini ham ta'kidlash lozim va unga ko'ra, makon mindel va mindel-riss davri bilan sanalanishi mumkin hamda bu Sharqiy Yevropaning tiraspol va singil teriokomplekslariga mos keladi⁶⁴. N.K. Anisyutkinning fikricha, ushbu sana haqiqatga yaqin⁶⁵. Shu ma'noda, L.B. Vishnyatskiyning Selungurni ilk paleolitga oid va u O'rta Osiyodagi eng qadimgi yodgorliklardan biridir⁶⁶, degan fikriga qo'shilish mumkin⁶⁷.

A.P. Derevyankoning fikricha, Selungur g'ori o'rta pleystotsenning ikkinchi yarmida odam tomonidan egallangan (MIS 9-10). Yodgorlikni sanalash uchun qatlamlarda mayda sut emizuvchilarning suyak qoldiqlarini bo'lishi juda muhim. Indikator sifatida *Microtus (Neodon) ex gr. Juldaschi* ning arxaik qoldiqlarini uchrashi hisoblanadi va ular so'nggi pleystotsenda yo'qolib ketadi⁶⁸. Sichqonlarning bu turi yodgorlikning 3-5-qatlamlarida uchraydi, biroq 2-qatlamda uchramaydi.

⁵⁷ Маркова А.К. Фауна ископаемых грызунов из ашельской стоянки Сельунгур // К истокам истории древнекаменного века Средней Азии: Ташкент, 1994. – С. 85-106.

⁵⁸ Барышников Г.Ф., Батыров Б.Х. Среднеплейстоценовые хищные млекопитающие (Carnivora, Mammalia) Средней Азии // Четвертичная фауна Северной Евразии: Санкт-Петербург, 1994. – С. 3-40.

⁵⁹ Воложенинов Н.Н., Крахмаль К.А. К алайскому плейстоценовому териокомплексу // К истокам истории древнекаменного века Средней Азии. Ташкент, 1994. – С. 106-112.

⁶⁰ Ranov V.A., Carbonell E., Rodrigues X.P. Kuldara: Earliest Human occupation in Central Asia in its Afro-Asian context // Current Anthropology. 16(2): 1995. – P. 337-345; Вишняцкий Л.Б. Палеолит Средней Азии и Казахстана. Санкт-Петербург, 1996. – С. 107.

⁶¹ Анисюткин Н.К., Исламов У.И., Крахмаль К.А. Кливеры раннепалеолитической стоянки Сельунгур в Средней Азии // Археологические вести. №7. ИИМК РАН, Санкт – Петербург, 2000. – С. 12-19.

⁶² Величко А.А., Арсланов А.А., Герасимов С.А., Исламов У.И. Стратиграфия и палеоэкология раннепалеолитической стоянки Сель-Унгур // Хроностратиграфия палеолита Северной, Центральной, Восточной Азии и Америки: Новосибирск, 1990. – С. 76-79.

⁶³ Деревянко А.П. Три глобальные миграции человека в Евразии. Том 2. Первоначальное заселение человеком Северной, Центральной и Средней Азии. Изд-во ИАЭТ СО РАН. Новосибирск, 2017. – С. 414.

⁶⁴ Барышников Г.Ф., Батыров Б.Х. Среднеплейстоценовые хищные млекопитающие (Carnivora, Mammalia) Средней Азии // Четвертичная фауна Северной Евразии: Санкт-Петербург, 1994. – С. 3-40.

⁶⁵ Анисюткин Н.К., Исламов У.И., Крахмаль К.А. Кливеры раннепалеолитической стоянки Сельунгур в Средней Азии // Археологические вести. №7. ИИМК РАН, Санкт – Петербург, 2000. – С. 15.

⁶⁶ Вишняцкий Л.Б. Палеолит Средней Азии и Казахстана. Санкт-Петербург, 1996. – С. 107.

⁶⁷ Анисюткин Н.К., Исламов У.И., Крахмаль К.А. Кливеры раннепалеолитической стоянки Сельунгур в Средней Азии // Археологические вести. №7. ИИМК РАН, Санкт – Петербург, 2000. – С. 12-19.

⁶⁸ Величко А.А., Арсланов А.А., Герасимов С.А., Исламов У.И. Стратиграфия и палеоэкология раннепалеолитической стоянки Сель-Унгур // Хроностратиграфия палеолита Северной, Центральной, Восточной Азии и Америки: Новосибирск, 1990. – С. 76-79.

Birinchi qatlam ustida joylashgan qatlamdan olingan travertin bo‘lagi 126 ± 5 ming yillarni bergan⁶⁹. Ushbu ma’lumotlardan kelib chiqib, 1-qatlamni 6-7 KIS, quyi qatlamlarni esa – MIS 9-10 davrlari bilan sanalash mumkin.

Shunday qilib, Selungur g‘or makonining sanasi masalasi aniq fanlar usullari yordamida 1,1 mln yillardan 100 yillargacha oraliqda belgilangan. Ta’kidlash joizki, Selungur makoni shubhasiz, turli xronologik davrlarga oid arxeologik materiallarga ega. Qo‘lga kiritilgan natijalar o‘rganilgan tosh buyumlar to‘plamining Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo paleolitiga o‘xshashligini ko‘rsatdi. A.A. Zubovning Selungur odamlari sharqiy xomo erektuslar bo‘lganligi haqidagi fikrlari yuqoridagi ta’kidimizni tasdiqlaydi. Bundan tashqari, N.K. Anisyutkinning yodgorlik mualliflari bilan birga chop ettirgan Selungur makoni kliverlari haqidagi maqolasida ham yodgorlikning kliverlari Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyoning bunday buyumlariga o‘xshashligi ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Aytish mumkinki, Selungurning madaniy qatlamlaridan aniq fanlar yordamida qo‘lga kiritilgan sanalar to‘g‘ri bo‘lishi mumkin, aniqrog‘i to‘g‘ri deb qabul qilinishi lozim. Selungur xronologik jihatdan mualliflar ta’kidlaganlaridek, 400-350-100 ming yillar oralig‘ida hukm surgan bo‘lishi mumkin. Biroq yodgorlikning yuqori sanasi qancha bo‘lishidan qat’iy nazar yodgorlik ilk paleolitga oiddir va unda sharqiy xomo erektuslar yashagan. Bunday manzara Sharqiy va Janubi-Sharqiy paleolit davri yodgorliklariga xos xususiyat hisoblanadi. Selungurda muste to‘g‘risida gap bo‘lishi qiyin masala, negaki, tilga olingan hududlar paleolitida ta’kidlaganimizdek, o‘rta paleolit tushunchasi mavjud emas.

Yodgorlikning quyi qatlamlari (5-4-qatlamlar) industriyasi texnik-tipologik xarakteristikasi Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyodagi 1-0,5 mln yillar oralig‘i bilan sanalangan texnokomplekslarga o‘xshashdir. Aytish mumkinki, Selungur g‘or makoni Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo ilk paleolit davri madaniyatlari tarqalishining eng g‘arbiy chegarasidagi yodgorligi hisoblanadi. Yodgorlikning tosh industriyasida kinson, teyyak tipidagi ayrim tig‘lar, plano tipidagi buyumlarning uchrashi ehtimol, g‘arbiy paleolit oykumenasi madaniyatlaridan o‘zlashtirilgan, negaki bunday buyumlar Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo ilk paleoliti komplekslarida uchramaydi.

Dissertatsiya IV bobining turtinchi paragrafi **“Selungur g‘or makoni qadimgi aholisining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti”** ga bag‘ishlangan. Ushbu paragrafda yodgorlik qatlamlaridan topilgan paleofauna, paleoflora va paleoantropologik materiallarning tahlili asosida Selungur makonida yashagan qadimgi jamoalarning ijtimoiy-iqtisodiy xayotiga to‘xtalib o‘tilgan. Selungur odami, ta’kidlaganimizdek, Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyoda yashagan sinantropolar va pitekantropolarning ajdodlari hisoblanadi. Yodgorlikda aynan, sharqiy, ya’ni klassik xomo erektuslar jamoasi yashagan. Ularning asosiy mashg‘ulotlari ovchilik va terimchilik bo‘lgan. Selungurdan topilgan 30 ga yaqin hayvon suyaklarining topilishi ushbu jamoaning asosan ovchilik bilan shug‘ullanishganligini ko‘rsatadi. Ushbu hayvonlarning go‘shiti jamoani zarur

⁶⁹ Вишняцкий Л.Б. Палеолит Средней Азии и Казахстана. Санкт-Петербург, 1996. – С. 107.

jismoniy energiya bilan ta'minlagan. Terimchilik esa, selungurliklarning oziq-ovqat ratsionini to'ldiruvchi mahsulotlar bilan ta'minlagan. Aytish mumkinki, selungurliklar ko'plab yeyishga yaroqli o'simlik va mevalarni makonga tashib kelishib, so'ngra iste'mol qilishgan. Selungurning ibtidoiy aholisi olovni bilishgan va undan go'sht mahsulotlarini pishirib iste'mol qilganlar. Tosh industriyaning tahliliga ko'ra, ov va terimchilik mahsulotlariga ixtisoslashgan tosh qurollarga ishlov berish makonning o'zida amalga oshirilgan.

Selungur odamlari, paleoantropologik ma'lumotlarga ko'ra, 35-40 yillar umr ko'rishgan. Bu o'sha davr uchun yuqori umr ko'rsatgichi hisoblanadi. Yodgorlikdan topilgan yosh bolaning suyagiga ko'ra aytish mumkinki, jamoada bolalar o'limi ham yuqori bo'lgan. Bu holat tosh davri jamoalari uchun tez-tez uchrab turadigan hodisadir. Selungur odamlari odontologik qoldiqlariga ko'ra ularning tishlari juda yirik bo'lgan va kariyes kasalligi alomatlari kuzatilmagan. Ammo ularda boshqa bir kasallik, ya'ni tish ildizlarining yemirilishi (paradontoz) holatlari mavjud bo'lgan. Selungur odamlarining keyingi taqdiri ma'lum emas. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra sharqiy xomo erektuslar zamonaviy odamlarning shakllanishida ta'sir ko'rsatgan. Biroq bu ta'sirning qay darajadali fanga hozircha ma'lum emas.

Umuman olganda, yodgorlik etalon xarakterga ega. Uning yuqori qatlamlaridan olingan namunalarga ko'ra, makonning yoshini o'rta paleolit bilan belgilamaslik lozim. Negaki, Selungur makoni bir qismi bo'lgan Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo paleoliti uchun o'rta paleolit, degan tushunchaning o'zi yo'q. Sanalardan qat'iy nazar Selungur ilk paleolitning va xaqli ravishda xomo erektuslar istiqomat qilgan yodgorligidir. Yodgorlik shubhasiz, ilk paleolitga oid va uning quyi qatlamlari albatta mos sanalarni berishiga umid bog'lash mumkin.

XULOSA

O'rta Osiyo hududi o'zining qulay geografik joylashuvi va boy tabiiy sharoitlari bilan eng qadimgi davrlardanoq insoniyatni o'ziga jalb etib kelgan. Bu hududning sharqni g'arb bilan va janubni shimol bilan yoki aksincha yo'nalishlarda insoniyat madaniyatlari kesishgan chorraxada joylashganligi hamda qator madaniyatlarning sintezi jarayonlari sodir bo'lganligi shundan dalolat beradi.

Selungur g'ori makoni nukleuslari asosan og'ir tosh ushatg'ichlar yordamida faqat uchirindilar chaqmoqlab olishga mo'ljallanganligi bilan ajralib turadi. Nukleuslarni chaqmoqlashda aksariyat hollarda zarb maydon tayyorlanmagan va ularning ish yuzasi hamda zarb maydonlari o'rtasidagi burchak juda ochiq. Bu holat nukleuslarning ish yuzasini to'liq chaqmoqlab olish imkoniyatini pasaytirib yuborgan. Natijada, yo'nilg'ilar nukleus ish yuzalarining boshlang'ich qismlarida sinib qolavergan va bu perpendikulyar, ortogonal yoki ko'p zarb maydonli o'zaklarning paydo bo'lishiga olib kelgan. Selungurda "qirradan chaqmoqlash" texnikasi ustunlik qiladi. Ko'p hollarda zarb maydon vazifasini xom ashyoning galkali yuzasi o'tagan. Yodgorlikda kam sonli bo'lsada sandonda sindirish texnikasi ham hukm surgan va bu usul asosan, yirik galkalarni chaqmoqlashda qo'llanilgan.

Selungur g'ori tosh industriyasida bifaslar ham muhim o'rin egallaydi. Ammo ularning shakllari atipik bodomsimon, yuraksimon va uchburchak shakllarga ega. Ishlanishi qo'pol va hech qachon ularning o'rta qismlari yo'nish yoki shox bolg'a yordamida olib tashlanmagan. Bu xolat Selungurning bifaslarini g'arbiy paleolitning sinxron industriyalaridan farq qilishini ko'rsatadi. Selungur g'ori bifasial ishlov berilgan qurollari kam sonliligi va ishlanish texnikasiga ko'ra Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyoning texnokomplekslariga o'xshashligi ko'zga tashlanadi. Kollektiyada yirik hajmli tosh qurollarning deyarli barcha turlari uchraydi. Ular orasidagi asosiy o'rin tutadigan kliverlar va bifaslar atipikligi bilan ajralib turadi. Bifaslar aksariyat xollarda qisman ishlangan yoki oxirigacha ishlov berilmagan va yuzalarida galka qobiqlarini saqlab qolgan. Yirik hajmli tosh qurollar ko'pincha sandonda sindirib olingan va kam hollarda yirik birlamchi uchirindilardan ishlangan. Yodgorlik tosh industriyasining tahliliga ko'ra, ov va terimchilik mahsulotlariga ixtisoslashgan tosh qurollarga ishlov berish makonning o'zida amalga oshirilgan.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni paleoantropologik materiallar ham tasdiqlaydi. Selungurdan topilgan gominidlarning tishlari bo'yicha A.A. Zubovning so'nggi xulosalari quyidagicha: 1. Selungurdan topilgan tishlar odamning uchta yuqori qoziq va uchta premolyar turiga mansubdir. Bu tishlardan beshtasi 35-40 yoshlardagi erkak individga va bittasi aftidan, ayol kishiga tegishli. 2. Zamonaviy odam tishlari bilan qiyosiy tahlillarning ko'rsatishicha, Selungur tishlarining barcha parametrlari (umumiy uzunligidan tashqari) ikkita yuqori qoziq tishlar va premolyarlardan birining vestibulolingval koronkasi zamonaviy odamlar tishlari hajmining o'zgaruvchanligi doirasiga mos keladi. Bu Selungur tishlarining Homo ajdodidan bo'lgan gominidlarga tegishlilikini ko'rsatadi. Ammo Selungur hamda xomo sapiyenslar tishlari oraliq'dagi metrik ko'rsatgichlarga ko'ra ular +3S holatini egalladi va bu odam jismoniy turlarining o'zgarishi bilan bog'liq. Selungur tishlari kollektiyasini qazilma odamlar tishlari bilan qiyosiy tahlillar g'ordan topilgan tishlarni qadimgi gominidlarga va avvalombor, Osiyo xomo erektuslariga o'xshashligini ko'rsatdi.

Yodgorlik tosh industriyasining primitivligi va uning beshala qatlamlarida evolyutsion siljishlarning yo'qligi qadimiy an'analar bog'liq madaniy belgi sifatida qaralishi lozim. Chunki, butun Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyoning o'nlab ilk va o'rta pleystotsen davri yodgorliklarida shu holat kuzatiladi. Madaniy jihatdan Selungurga o'xshash yodgorliklar undan g'arb tomonda va O'rta Osiyo hududida uchramaydi. Aytish mumkinki, selungurliklar madaniy aloqalardan ko'ra, o'zlarining qadimiy an'analarini saqlab qolishni afzal ko'rganlar.

Xullas, Selungur makoni butun O'rta Osiyoda va boshqa ko'hna g'arb dunyosida o'xshashi yo'q yagona yodgorlikdir. U Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo erektuslarining million yillik an'analarini o'zida mujassamlashtirgan, tashqi ta'sirlarga deyarli uchramagan o'ziga xos O'rta Osiyoning eng qadimiy yodgorliklaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari quyidagi **taklif va tavsiyalarni** ishlab chiqish imkonini berdi:

1. O‘rta Osiyo hududidagi ilk paleolit davri madaniyatlarini umumlashtirgan va tizimlashtirgan monografik asar yozish va shu asosda barcha OO‘Yu talabalari uchun darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar yaratish;

2. Yurtimizdagi tarix va arxeologiya muzeylarida qadimgi tosh davri moddiy madaniyatiga bag‘ishlangan keng qamrovli ekspozitsiyalar tashkil qilish va shu davr tarixini keng omma orasida targ‘ib qilish;

3. Noyob Selungur g‘or makoniga turistik marshrutlar tashkil qilish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/02.30.12.2019. Tar.45.01. ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ ЦЕНТРЕ АРХЕОЛОГИИ
НАЦИОНАЛЬНЫЙ ЦЕНТР АРХЕОЛОГИИ**

ОМОНОВ АНВАРБЕК МУРОДОВИЧ

**КАМЕННАЯ ИНДУСТРИЯ ПЕЩЕРНОЙ СТОЯНКИ СЕЛЬУНГУР
(технико-типологическое исследование)**

**07.00.06 – Археология
(исторические науки)**

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам

Ташкент-2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за номером B2023.3.PhD/Tar1150.

Диссертация выполнена в Национальном центре археологии.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.archaeology.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Сайфуллаев Бахтиёр Курбонович
Доктор исторических наук

Официальные оппоненты:

Аскар Ахмадали Аскаревич
Доктор исторических наук, профессор, академик

Хушваков Наби Олимович
Доктор исторических наук, доцент

Ведущая организация:

Самаркандский государственный университет

Защита диссертации состоится «15» сентября 2023 г. в 10:00 часов на заседании Научного совета DSc.02/02.30.12.2019.Tar.45.01. по присуждению ученых степеней при Национальном центре археологии АН Республики Узбекистан (Адрес: 100170, город Ташкент, улица Мирзо Улугбека, дом 81). Тел.: (99871) 262-64-62, e-mail: uzarchae@academy.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в библиотеке Национального центра археологии и Фундаментальной библиотеке Академии наук Республики Узбекистан (зарегистрирована за №49). (Адрес: 100170, г. Ташкент, Мирзо Улугбекский район, ул. Зиёлилар, 13. Тел.: (99871) 262-74-58; Факс: (99871) 262-34-41).

Автореферат диссертации разослан «30» ноября 2023 года.
(реестр протокола рассылки № 3 от «30» ноября 2023 года.)



[Handwritten signature]

Ф.А. Максудов
Председатель Научного совета
по присуждению ученых степеней, д.и.н.

Д.Х. Муродова
Ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней, к.и.н.

А. Анарбаев
Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению
ученых степеней,
д.и.н., профессор.

[Handwritten signature]

[Handwritten signature]

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. На сегодняшний день в палеолитоведении мира освещение общественных и культурных явлений на основе изучения материальной культуры раннего палеолита рассматривается как одна из важнейших задач всемирного научного сообщества. Появление новых методов исследования способствует переизучению ранее исследованных и классифицированных коллекций каменных изделий палеолитических памятников. В этом отношении особое значение имеют коллекции каменных изделий из палеолитических памятников Средней Азии.

В мире проводится большое число научных исследований по исторической реконструкции общественной жизни эпохи раннего палеолита. В этом отношении, важное значение имеет выявление объективных культурно-хронологических особенностей, генезиса и культурных отношений соседствующих синхронных популяций с помощью исследования техники расщепления, технических традиций и широкого сравнительного анализа ранне неизученных раннепалеолитических памятников.

В годы независимости в Узбекистане выполнены определенные работы по археологическому изучению богатого прошлого и культурного наследия центров цивилизаций с древнейших времен и восстановлении исторических процессов. Более того, в последние годы в Узбекистане выявлены новые памятники эпохи камня, бронзы и раннего железа, проведенные исследования над которыми позволяют получить значительное количество информации о далеком прошлом нашего народа. Так, "...древнее многовековое и богатое культурное наследие нашего региона имеет глобальное значение"¹. Изучение истории эпохи раннего палеолита Средней Азии, на примере пещерной стоянки Сельунгур, расположенной на территории Ферганской долины, является одной из актуальных задач.

Данное научное исследование в определенной мере служит претворению в жизнь Указов Президента Республики Узбекистан от 30 октября 2021 года "О дальнейшем совершенствовании непрерывной системы подготовки квалифицированных кадров в отраслях туризма, культурного наследия и музееведения" под номером УП-5270, в Указе Кабинета министров Республики Узбекистан от 18 мая, 2017 года "О мерах организации деятельности новоучрежденных научно-исследовательских учреждений Академии Наук Республики Узбекистан" под номером 292 и от 21 сентября, 2019 года "О коренном усовершенствовании археологических исследований", а также в Указах Президента Республики Узбекистан от 29 октября, 2020 года "Об утверждении концепции развития науки до 2030 года" под номером УП-

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Миромонович Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 75-сессиясидаги нутқи / Халқ сўзи, 24-сентябр, 2020 йил.

6097 и других нормативных правовых документов, относящихся к данной теме².

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан. Диссертация выполнена в Национальном центре археологии АН РУз., в рамках государственной научно-технической программы Комитета науки и техники на тему: I. Развитие общества, теории государственности и права, конкурентоспособности экономики.

Степень изученности проблемы. Пещерная стоянка Сельунгур расположена на границе Узбекистана и Кыргызстана, в 100 км к юго-западу от города Фергана, в долине реки Сох, на западной окраине села Хайдаркан (Ошская область). Высота памятника над уровнем моря составляет 1890 м. Пещерная стоянка Сельунгур была открыта и исследована А.П. Окладниковым в 1955 году. В 1964 году кратковременные исследования здесь проводились М.Р. Касымовым³. Между исследованиями А.П. Окладникова и М.Р. Касимова памятник изучался А. Пошкой⁴.

